




Maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik savodxonlikni shakllantirish



7-MAVZU: QUYOSH NURI FOYDALARI



7.1. Mashg'ulotning o'qitish texnologiyasi

Mashg'ulotning maqsad va vazifalari	Ta'lim beruvchi faoliyati: • Quyoshning issiqlik berishi, yorug'lik berishi va o'simliklarning o'sishiga ta'siri haqida ko'rgazmali misollar beradi. • O'yinlar orqali quyosh nurining foydali va ehtiyot bo'lish kerak bo'lgan jihatlarini farqlashga o'rgatadi.	Ta'lim oluvchilar uchun kutilayotgan natijalar: • Quyosh nurining asosiy foydalarini ayta oladi. • O'simliklar quyosh nurisiz o'smay qolishini tushunadi. • Quyoshdan to'g'ri foydalanishni bilib oladi.
O'quv jarayoni mazmuni va mashg'ulotni amalga oshirish texnologiyasi	Kirish– mavzuga qiziqtirish Asosiy faoliyat – o'yinlar Yakuniy qism – rag'bat va xulosa	Shakl: interfaol o'yin Metod: Tajriba, muammoli vaziyat, suhbat, rasmlar taqqoslash, harakatli o'yin, ijodiy faoliyat Vosita: Rasmlar, kartochkalar, 2 ta o'simlik namunasi, qog'oz, qaychi, marker, bo'yoqlar O'qitish sharoiti: Yaxshi yoritilgan xona, tajriba uchun kichik stol, ijodiy ish burchagi

7.2. Mashg'ulotning texnologik xaritasi

Kirish (5 daqiqa)	Ta'lim beruvchi faoliyati: • Quyosh rasmini ko'rsatib savollar beradi: • "Quyosh bizga nima beradi?" • "Agar quyosh bo'lmasa nima bo'ladi?" • Quyoshli manzara va qorong'i manzara rasmlarini taqqoslatadi.	Bolalar faoliyati: • Quyoshning yorug'lik, issiqlik berishini aytadilar. • Qorong'ilikda hech narsa ko'rinmasligini, sovuq bo'lishini ta'kidlashadi.
Asosiy faoliyat (20 daqiqa)	1) Kichik tajriba: "Quyosh bo'lsa – o'sadi, bo'lmasa – o'smaydi" Interfaol o'yin: 2)"Quyoshning foydalari – nima uchun kerak?" 3)Harakatli o'yin: "Quyosh chiqdi – quyosh botdi" 4) Suhbat–mulohaza: "Quyoshsiz hayot qanday bo'ladi?" 5) STEAM amaliy faoliyat: "Quyosh nurlari" paneli yasaymiz	Bolalar: – "Quyosh bo'lgan o'simlik yashil bo'ladi", "Quyosh issiqlik beradi". Bolalar foydali–zararli jihatlarni ajratishni o'rganadi. Bu o'yin sezgirlik, eshitish va tezkor reaksiya ko'nikmasini rivojlantiradi.
Yakun (5 daqiqa)	Refleksiya savollari. Rag'bat.	Javob beradilar. Xulosalaydilar.

Ko'rgazmali material

Kichik tajriba: "Quyosh bo'lsa – o'sadi, bo'lmasa – o'smaydi"

Ikki bir xil o'simlik (haqiqiy):

1-o'simlik: Yorug'likda

2-o'simlik: Yopiq qopqoq ostida (quyoshsiz)

Savol: "Qaysi o'simlik yaxshi o'sadi? Nega?"

Bolalar:


– "Quyosh taguda o'sgan o'simlik yashil bo'ladi",

"Quyosh issiqlik beradi".



KO'RGAZMALI MATERIAL

Interfaol o'yin:
“Quyoshning foydalari
– nima uchun kerak?”



1

Yorug'lik

2

Issqlik

3

Mevalarning yetilishi

4

O'simliklarning o'sishi

5

Quyosh panellari energiya beradi

6

Kuchli quyoshda ko'p yurishdan ehtiyot
bo'lish kerak


HARAKATLI O'YIN: "QUYOSH CHIQDI – QUYOSH BOTDI"

TARBIYACHI: "QUYOSH CHIQDI!" – BOLALAR TIK TURIB QO'LNi YUQORIGA KO'TARISHADI.

- "QUYOSH BOTDI!" – BOLALAR BUKILIB "UYQU" HOLATIGA KIRADI.
- "SOYAGA KIRDIK!" – BOLALAR QO'LLARI BILAN SOYA YASAYDILAR.

👉 USHBU O'YIN SEZGIRLIK, ESHITISH VA TEZKOR REAKSIYA KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRADI.





STEAM: “Quyosh nurlari” paneli yasaymiz

Bolalar quyidagilarni bajaradilar:

- Kartondan doira (quyosh) kesib olish
- Atrofiga nur chizish yoki bo'yash
- Quyoshning foydalarini rasm bilan ifodalash:
 - 🌱 O'simlik o'smoqda
 - ☀️ Issiqlik
 - 🧒 Bola quyoshda o'ynayapti.
 - 🍏 Mevalar pishayapti.



“Quyoshning do‘sti” rahmatnomasi

